

INKLYUZIV TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASPEKTI

*Toshkent TMC instituti Pedagogika va
psixologiya kafedrasи o'qituvchisi
Eshmamatova Sitorа Tuyg'un qizi.*

*TMC instituti Maktabgacha
ta'lim yo'nalishi talabasi
Ahadova E'zoza*

Annotatsiya. Inklyuziv ta'limni tashkil etishning pedagogik va psixologik aspektlari bugungi ta'lim tizimida eng muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur jarayon nafaqat alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning bilim olishi, balki ularning ijtimoiylashuvi va shaxsiy rivojlanishini ham ta'minlashga qaratilgan. Pedagogik jihatdan inklyuziv ta'lim o'qituvchilardan moslashuvchan metodikani qo'llash, differensial yondashuv, hamkorlik va tolerantlik muhitini yaratishni talab etadi. Psixologik aspekt esa o'quvchilarning ruhiy holatini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy-emosional rivojlanishiga sharoit yaratish, ularning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga qaratilgan. Shu bois inklyuziv ta'limda pedagog, psixolog, ota-onalar va jamiyat hamkorligi muhim o'rinn tutadi. Jarayonning samarali tashkil etilishi barcha o'quvchilar uchun qulay ta'lim muhitini yaratadi, tenglik va bag'rikenglik tamoyillarini mustahkamlaydi hamda kelajakda ijtimoiy totuvlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, pedagogik aspekt, psixologik aspekt, alohida ta'lim ehtiyojlari, differensial yondashuv, tolerantlik, ijtimoiylashuv, emosional qo'llab-quvvatlash, hamkorlik, bag'rikenglik.

So'nggi yillarda dunyo miqyosida ta'lim tizimida tenglik va adolat tamoyillariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan, inklyuziv ta'lim konsepsiysi jahon ta'lim siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi barcha bolalarga, jumladan, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega o'quvchilarga ham, umumiyligi ta'lim muassasalarida bilim olish, rivojlanish va ijtimoiylashuv uchun teng sharoit yaratib berishdir.

Inklyuziv ta'limni samarali tashkil etishda pedagogik va psixologik jihatlar muhim o'rinn egallaydi. Pedagogik aspekt o'qituvchining dars jarayonini tashkil etish uslublari, metodlari, differensial yondashuv va moslashuvchan ta'lim dasturlari orqali amalga oshirilsa, psixologik aspekt o'quvchilarning ruhiy holatini qo'llab-quvvatlash, ularning o'zini qadrlashi va ijtimoiy muhitga moslashuvini ta'minlashga qaratiladi.[1]

Mazkur maqolada inklyuziv ta’limni tashkil etishning pedagogik va psixologik aspektlari atroflicha yoritilib, jarayonning samarali kechishini ta’minlaydigan omillar, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi.

Inklyuziv ta’lim — bu barcha bolalarni, ularning jismoniy, aqliy, ijtimoiy yoki boshqa imkoniyatlaridan qat’i nazar, umumiy ta’lim muassasalarida birgalikda o‘qitish tizimidir. Bu tushuncha xalqaro hujjatlarda, xususan, BMTning “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasi va UNESCOning tavsiyalarida keng yoritilgan.

Inklyuziv ta’limning asosiy mohiyati:

Tenglikni ta’minlash – barcha bolalarga bilim olish imkonini berish;

Kamsitishni bartaraf etish – ta’limda diskriminatsiyaga yo‘l qo‘ymaslik;

Ijtimoiylashuvni kuchaytirish – alohida ehtiyojli bolalarni jamiyatga moslashtirish;

Hamkorlikni rivojlantirish – o‘quvchi, ota-onasi, o‘qituvchi va jamiyat o‘rtasida o‘zaro aloqalarni mustahkamlash.

Shunday qilib, inklyuziv ta’lim nafaqat ta’lim jarayoni, balki keng ijtimoiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega tizim sifatida e’tirof etiladi.[2]

Inklyuziv ta’limda o‘qituvchi asosiy shaxs sanaladi. U nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, psixolog, hamkor va maslahatchi vazifasini ham bajaradi. Pedagogning metodik saviyasi yuqori bo‘lishi, bolalarga individual yondashishi va ularning imkoniyatlariga mos sharoit yaratishi zarur.

Dars jarayonini tashkil etish

Differensial yondashuv – o‘quvchilarни bilim darajasi, qiziqishi va imkoniyatlariga qarab topshiriqlar berish.

Moslashuvchan dasturlar – alohida ehtiyojli bolalarga maxsus qo‘sishimcha materiallar tayyorlash.

Interfaol metodlar – kichik guruhlarda ishslash, hamkorlikdagi topshiriqlar, loyiha asosidagi o‘qitish.

Texnologik qo‘llab-quvvatlash – multimedia, elektron resurslar va maxsus vositalardan foydalanish.

Inklyuziv ta’limda ta’lim muassasasida do‘stona va tolerant muhit yaratish muhim. O‘quvchilar o‘zaro hurmat, birdamlik va yordam tamoyillarida tarbiyalanishi lozim.[3]

Inklyuziv ta’lim jarayonida alohida ehtiyojli o‘quvchilar ko‘pincha psixologik to‘siqlarni boshdan kechiradi. Ularning o‘ziga ishonchi past bo‘lishi, ijtimoiy qo‘rquv yoki o‘zini chetlanib qolgan his etishi mumkin. Shu sababli psixologlarning faol ishtiroki zarur.

Sinf jamoasida sog‘lom va alohida ehtiyojli bolalar o‘rtasida ijobiy munosabatlarni shakllantirish psixologik muhitning asosini tashkil etadi. Buning uchun:

- qo'shma o'yinlar va tadbirlar;
- ijodiy mashg'ulotlar;
- sport musobaqalari samarali hisoblanadi.[4]

O'quvchilar o'z his-tuyg'ularini boshqarish, stressni yengish, jamoada o'zini erkin his qilish ko'nikmalarini egallashlari lozim. Psixologik xizmat bu jarayonda ularga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta'limni tashkil etishning pedagogik va psixologik aspektlari bir-birini to'ldiruvchi muhim yo'nalishlardir. Pedagogik yondashuv ta'lim jarayonini samarali tashkil etishni, psixologik yondashuv esa bolalarning ruhiy va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi. Ushbu ikki omil uyg'unlashgandagina inklyuziv ta'limning haqiqiy samarasi ko'zga tashilanadi.

O'zbekiston sharoitida bu tizimni yanada rivojlantirish, o'qituvchilar va psixologlarning malakasini oshirish, ota-onalar hamda jamiyatni jalb qilish orqali alohida ehtiyojli bolalarning jamiyatda o'z o'rnni topishiga keng yo'l ochiladi. Natijada, ta'limda tenglik, ijtimoiy birdamlik va insonparvarlik tamoyillari mustahkamlanadi.

Foydalaniqan adabiyotlar ro'yxati

1. Mahmudova Z. Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish, 2020. – 198 b.
2. Slee R. The Irregular School: Exclusion, Schooling and Inclusive Education. – London: Routledge, 2011. – 215 p.
3. Amonov U. Bola tarbiyasida oilaning o'rni. – Toshkent: O'qituvchi, 2017. – 150 b.
4. Miles S., Singal N. The Education for All and Inclusive Education Debate: Conflict, Contradiction or Opportunity? – International Journal of Inclusive Education, 2010. – Vol. 14 (1). – pp. 1–15.